

NASRIY MATNLARDA UNDALMANING QO‘LLANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Alimova Dilnoza Komil qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU talabasi.

Yusupova Orzubonu Sunnatovna

Ilmiy rahbar: Dots.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11316600>

Annotatsiya. Mazkur maqolada undalmaning nasriy matnlarda qo‘llanilishi haqida so‘z boradi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan parchalar keltiriladi. Undalmaning lingvopoetik xususiyatiga urg‘u beriladi.

Kalit so‘zlar: undalma, shaxsiy munosabat, xalqchillik, individuallashtirish, lingvopoetika, gender xususiyat, emotsional-ekspressivlik.

SOME CONSIDERATIONS ON THE USE OF PROCESS IN PROSE TEXTS

Abstract. This article talks about the use of the imperative in prose texts. Excerpts from O‘tkir Hashimov’s short story “Dunyoning ishlari” are presented as the object of research. Emphasis is placed on the linguopoetic nature of undalma.

Key words: personal attitude, nationalism, individualization, linguopoetics, gender characteristic, emotional-expressiveness.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ПРОЦЕССА В ПРОЗАХ

Аннотаци. В данной статье говорится об употреблении повелительного наклонения в прозаических текстах. В качестве объекта исследования представлены отрывки из рассказа Откира Гашимова «Мировые дела». Акцент сделан на лингвопоэтической природе ундальмы.

Ключевые слова: личностная установка, национализм, индивидуализация, лингвопоэтика, гендерная характеристика, эмоционально-выразительность.

Ilmiy manbalarda so‘zlovchining nutqi qaratilgan, tinglovchi shaxsni ifodalovchi, undash, nomlash, so‘zlovchining shaxsiy munosabatini ko‘rsatish, muloqot o‘rnatish, nutq jarayonini mustahkamlash kabi bir qancha vazifalarni bajaradigan sintaktik birlik undalma deb yuritiladi [1; 3; 5; 6]. Undalma matnda, ayniqsa, badiiy matn turlarida mana shu jihatlari sababli faol qo‘llaniladi. Badiiy matnda nafaqat murojaat birligi sifatida, balki so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan munosabatini ko‘rsatish, his-tuyg‘u ifodasi, ta’sirchanlikni oshirish maqsadida ham qo‘llaniladi.

Yozuvchining o‘ziga xos uslubini hosil qilishda, qahramon nutqini individuallashtirishda, qahramon xarakterini ochib berishda, nutqning ixtisoslashuvida, milliy mentalitetni, xalqchillikni ko‘rsatishda undalmaning o‘rni nihoyatda katta. Biz yuqorida aytilgan fikrlarni nasriy asarlarda undalmaning qo‘llanilishini izohlash orqali isbotlashga harakat qilamiz va O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridan foydalanamiz. Bilamizki, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi o‘zbek kitobxonlarining qalbidan o‘rin olgan, o‘zbek onasining bir namunasi nihoyatda mahorat bilan tasvirlangan qissa hisoblanadi. Bu asar muvaffaqiyatining bir tomoni asar mavzusi bo‘lsa, ikkinchi tomoni bu mavzuning til birliklari orqali mohirona tarzda ochib berilganligidadir.

Bu asarda har bir til birligi, jumladan, undalmalar ham ma'lum vazifa bajargan, lingvopoetik ahamiyat kasb etgan.

Masalan, bu qissada undalmalar shunchaki murojaat birligi sifatida qo'llanmagan, unda ta'sirchanlik, suhbatdoshga hurmat, mehr-muhabbat singari o'ttenkalarni mavjud. Quyidagi gap qo'shni ayolning Hakima ayaga kelini to'g'risidagi dard-hasrati, xushxabar emas. Biroq shu gapda undalma orqali so'zlovchining o'ziga xos nutqi, xarakteri ham ifodalanmoqda: *Kecha itni kunini boshimga soldi, aylanay! Xotin olgandan keyin ona kerak bo'lmay qolarkan. Shuni oldi-yu o'g'lim ham aynidi-qoldi, qoqindiq ("Dunyoning ishlari", 66)*. Qissada undalmalar juda faol qo'llanilgan bo'lib, o'zida gender xususiyatlarini ham tashigan, ya'ni erkak va ayol nutqida qo'llaniladigan undalmalar qissada alohida ajralib turadi. Milliylik buning ustiga yana bir alohidalik yuklaydi:

Jigar-jigar, digar-digar ekan, o'rgilay, - deydi yig'lamsirab (66). Qissada gapning oxirida kelgan undalmalar subyektiv munosabatni ifodalashga xizmat qilgan: – *Bormisan, oppoq qizim (98)*. Gap boshida kelganda esa ko'pincha emostionallikdan holi, faqat o'z vazifasi – undash, murojzat vazifasini bajargan: *Bolalar, uning yong'oqqa tosh otganini hech kim ko'rmadimi? (25)*.

Biroq ayrim hollarda gapdagi boshqa so'zlar ta'sirida gap boshida kelgan undalmalar ham ta'sir kuchiga ega bo'lishi, o'z vazifasidan tashqari qo'shimcha vazifa bajarishi mumkin. – *Jon adasi, aylanay adasi, johillik qilmang, keling, shular to'ya qolsin. Mayli, sholchani sotamiz(85)*.

Misoldagi kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan, o'zbek oilalariga tanish bo'lgan *adasi* undalmasi oddiy murojaat ko'rinishidan bir pog'ona yuqoriga, ta'sir etish vazifasi tomonga siljigan.

Shu birlikni olib tashlasak, yalinish ma'nosi o'z o'rnini maslahat ma'nosiga bo'shatib beradi. Asarda gap o'rtasida keladigan undalmalar ham mavjudki, bunday undalmalar faqat so'zlashuv nutqi va badiiy nutqda kelishi bilan o'ziga xoslik hosil qiladi: *Shoshmanglar, popuklar, shoshmanglar qoravoylar, yana besh-o'n marta qoqay, hammalaringa yetadi. (55)*

Bo'pti, qoravoylar, popuklar, yaqinroq kelinglar (57). *Mana, tasadduqlar, pashist deganiyam jazosini oldi-ku (59)*. Ushbu nutq urush tufayli yo'lg'iz o'g'lidan judo bo'lgan Ermon ota nutqidan parcha. E'tibor bersak, Ermon ota bolalarga *qoravoylar, popuklar, tasadduqlar* deb murojaat qilyapti. Bu murojaatda otaning bolalarga mehri, samimiyati aks etmoqda. Ermon otaning xotini Habiba buvi nutqida *ko'paygur* so'zi undalma sifatida qo'llanadi: *-Tut yurakni o'rtab yuboradi, ko'paygurlar. Yuringlar, choy ichamiz (52)*. Bosh qahramon Hakima aya hech kimning ko'nglini qoldirmaydigan, mehribon, bolajon, sodda, jonkuyar, o'zbek ayoli, shu sababli uning nutqida *o'rgilay, aylanay, opasi, opovsi* kabi undalmalar faol qo'llanilgan: *Onam yoniga o'tirgan juvonga tushuntirdi: Bunaqada bola xuyli bo'lib qoladi, qizim. Aldab-suldab ovuting-da. Ana, di-ditga tushdik. Bola endi yig'lamas, ammo o'pkasi to'lib to'xtovsiz hiqillar edi. Qayoqqa ketayotgan edinglar, o'rgilay? — dedi onam ayolni ham yupatuvchi ohangda; Voy o'rgilaylar! — dedi onam eski qadrdonlarini ko'rgandek, quvonib. — Xush kepsizlar! U har ikkala ayol bilan quchoqlashib ko'rishdi*. Bu undalmalar ham uning Hakima ayaning ijobiy xususiyatlarini ochib berishda yozuvchiga vosita bo'lib xizmat qilgan. \

Dallolning nutqini boshqa qahramonlar nutqidan farqlashda ham undalma (*akam aylanay, birodar*) ma'lum vazifa bajarmoqda: – *Xudo xohlarsa ayni qish chillasida bollarning og'zi oqarib qoladi, birodar! (101); Bu zotli mol, akam aylanay! Onasi har yili ikkitadan tug'adi, -dedi dallol shang'illab. Suti sigirnikidan ham yog'li. Pulingiz yoningizda ketadi, akam aylanay (101)*.

Shaddod amma nutqini ochib berishda ham undalma yordamga keladi. *-Ha? -dedi ammam yog'on tovushda. -To' rvasini yoqotgan gadoydek talmovsirab qopsiz, kelinposhsha?!(111).*

Amma nutqida qo'llanilgan ibora va gap oxiridagi undalma, undalmadagi ohangni his etgan kitobxon ko'z o'ngida asardagi amma qiyofasi yaqqol gavdalanadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, undalma nasriy matnlarda muallif-so'zlovchi, qahramon-so'zlovchining tinglovchiga subyektiv munosabatini ifodalash, qahramon nutqini individuallashtirish, ta'sirchanlikni ta'minlash, xalqchillikni oshirish kabi qator vazifalarda faol qo'llaniladi.

REFERENCES

1. Акбарова З. Мурожаатнинг моҳияти// Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. - №3. –Б.89-92.
2. Акбарова З. Тил ва мурожаат // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. - №3. –Б.92-95.
3. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2008.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –230 б.
5. Расулов Р., Аҳмедова Н. Ундалмами ёки мурожаат бирлиги// Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. – №2. –Б.85-88.
6. Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек тилида ундалма. –Тошкент: Фан, 1968. –74 б.
7. D.Islamova. Linguistic representation and methods of its expression in artistic text. International Bulletin of Engineering and Technology (IBET). Volume: 3, Issue: 7. – Amerika, 2023. – P. 137-141.
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=t18kgDYAAA_AJ&citation_for_view=t18kgDYAAAAJ:ULOm3_A8WrAC